

ZARDUSHTIYLIK NIMA?

Zardushtiylik dinining asoschisi Zardusht (Zaratushtra) qachon yashaganligi aniq ma'lum emas. Odatda, eramizdan avvalgi IX va VI asrlar o'rtasida yashagan, deb hisoblashadi. Zardushtiylar, ma'bud Ahura Mazda Zardushtga Gotlar deb atalgan hamda 17 madhiyada bayon etilgan vahiy yuborgan, deb ishonadilar. Gotlar zardushtiylikning muqaddas kitoblari to'plami — Avestoga kiritilgan.

Zardushtiytlarning marosimlarida olov asosiy o'rin tutgan. Olovga bag'ishlab ibodatxonalar qurilgan. U yerda otashkadalar bo'lib, ularda doimo muqaddas olov yonib turgan. Uning alangasi ba'zan 2 metrgacha ko'tarilgan. Olov xudoni o'zida mujassamlantirgan. Ibodatxonalarda olovdan boshqa hech narsa bo'lmagan.

AVESTO NIMA?

Eramizning birinchi asrlarida Yaqin Sharqda yuzaga kelgan zardushtiylik diniga e'tiqod qiluvchilarning muqaddas kitobi Avesto deb ataladi. Rivoyatga ko'ra, Avestoning matni ushbu dinning bosh payg'ambari Zardusht tilidan taxminan eramizning III—VII asrlarida uning shogirdlari tomonidan yozib olingan.

Bizgacha yetib kelgan matnlar 21 jilddan iborat bo'lgan, yo'qolib ketgan ulkan yodgorliklar to'plamining qoldiqlari ekanligini tadqiqotchilar aniqlashgay. Matnlarni tahlil qilish ular turli zamonlarda turli joylarda yaratilganligini ko'rsatadi. Uzoq'i bilan VI asrda ular yagona to'plamga jamlanib, ushbu muqaddas matnlarni bitish uchun maxsus yaratilgan alohida alifboda yozilgan.

Katta Avesto deb atalmish kitobning asosiy qismi Gotlar deb ataladi. Bular — zardushtiylikning asoslarini bayon etuvchi besh she'riy kompozitsiyadan iborat. Gotlarning har biri 17 bobdan iborat.

Katta Avestoga Gotlardan tashqari, Yasna — yetti bobdan iborat bo'lgan, pandnoma tarzidagi uncha katta bo'lmagan asarlar, shuningdek, har xil qisqa duolar ham kiradi.

Kichik Avestoni yuqorida eslab o'tilgan Yasna — zardushtiylikning muqaddas matnlaridan eng asosiysi, poklovchi videvdat duolari, marosim qo'shiqlari — vispered to'plamlari, shuningdek, Yashtlar — turli ma'budlarga bag'ishlangan madhiyalar tashkil etadi.

Dastlab Avesto o'zlarini «forslarning eng yaxshisi», deb atagan, hayotini shu dinga bag'ishlagan bir qism odamlarga mo'ljallab bitilgan edi. Qo'lyozma o'sha davrning so'zlashuv tilida emas, balki deyarli hech kim tushunmaydigan tilda bitilgani shu bilan izohlanadi.

Hozirgi o'quvchi uchun Avestoning eng qiziq qismi Gotlardir. Ularda olamning yaratilishi va tuzilishi tamoyillari, uning kelajakdagi taqdiri bayon etiladi.

Gotlar matnini Bibliya bilan qiyoslash ularda umumiy jihatlar ko'pligini ko'rsatdi. Masalan, boshida barcha matnlar payg'ambarga ma'bud Axuramazda tomonidan yuborilgan farishta Voxuman tomonidan berilgachligi haqida hikoya qilinadi. Unda ham, Bibliyadagi kabi, zulmat doimo yovuz kuchlar kirdikorlari bilan bog'lanadi.

Hozirgi paytda zardushtiylikka e'tiqod qiluvchilar janubi-g'arbiy Eronda hamda hindistonning g'arbiy qismida saqlanib qolgan.

HIND SIVILIZATSIYASI NIMANI ANGLATADI?

Egey, Misr va Yaqin Sharq olamidan uzoq Sharq tomonda sivilizatsiyaning yana bir yirik o'chog'i bo'lib, hind sivilizatsiyasi deb atalgan. Bu nom hind daryosi bilan bog'liq bo'lib, uning yaqinida ko'plab shaharlar bunyod etilgan edi.

Bronza asrining bizga ma'lum Bo'lgan bu eng yirik sivilizatsiyasi 1,3 million kvadrat kilometr maydonni egallagan. Bu yerda 150 dan ziyod manzilgoh bo'lib, ularning ko'pchiligida qazish ishlari olib borilgan. Eng muhim markazlar — Moxenjo-Daro va Xarappa aholisi 30—40 ming

kishini tashkil etardi. Barcha yerda bo'lgani kabi shahar sivilizatsiyasi ham neolit davrining eramizdan avvalgi taxminan 3500 yilda yuzaga kelgan dehqonchilik manzilgohlaridan o'sib chiqqandi. Devorlar bilan o'rab olingan shaharlar, savdosotiq hamda turli-tuman hunarmandchilik asta-sekin rivojlana borgan. Eramizdan avvalgi 2500 yilga kelib bu keng o'lkaning qishloq va shaharlari yagona sivilizatsiyani tashkil etgan.

TABAQA TIZIMI NIMA?

Eramizdan avvalgi II ming yillik boshida oriy xalqi Hindistonning shimoli-g'arbga ko'chib borib joylashadi. Oriylar Sharqqa tomon siljib borib, birinchi ming yillik boshida Gang daryosi yuqorisidagi vodiyyai egalladi. Ularning tili — sanskritning qadimgi shakli (Shimoliy Hindistonning hozirgi tilining akasi)edi.

Faqat til emas, balki hozirgi hind madaniyatining boshqa elementlarining ildizi ham, masalan, tabaqalar tizimi oriylar sivilizatsiyasiga borib taqaladi. hind dinining ayrim ma'budlari ham oriylardan kelib chiqqan. Oriy ma'budlar va oriylarning jamiyat tuzilishi ham qadimgi hind adabiyotining saqlanib qolgan ko'hna obidalari — vedalar tufayli ma'lumdir. Vedalar og'zaki ravishda avloddan-

avlodga o'tib kelgan, eramizdan avvalgi XI asrdan boshlab esa qo'lyozmalarda qayd etilgan. «Rigveda» — madhiyalar majmuasi. Ularda dehqon jamoalarida oriylarning o'z qo'l ostilaridagi oriy bo'lmagan tub xalqlar bilan o'tgan hayotlari aks ettirilgan.

Qadimiy oriylar jamiyati to'rt ijtimoiy guruhga bo'lingandi. Birinchisi, braxman kohinlar edi. Ikkinchi guruhni jangchilar yoki kshatriylar tashkil qilardi. Uchinchi guruh savdogarlar, dehqonlar va hunarmandlardan iborat edi. Ularni vayshyalar deyilardi. So'nggi guruh shudralar — xodimlar va xizmatkorlardan iborat edi. Oriy bo'lmaganlar Hindistonda yanada past tabaqa hisoblanardi. Ijtimoiy guruhlarning bunday tizimi oxir-oqibat tabaqachilik tizimiga aylanib ketdi. Yuzlab tabaqalar va quyi tabaqalar yuzaga keldi. Oriy bo'lmaganlar zoti toza hisoblanmas, ular e'tibordan chetdagi kishilar hisoblanardi.

BUDDAVIYLIK (BUDDIZM) QANDAY DIN?

Buddaviylik — jahondagi eng nufuzli dinlardan biri. Buddaviylikka e'tiqod qiluvchilarning ko'pchiligi Shri-Lanka, Xitoy, Yaponiya, Koreya va Tailandda istiqomat qilishadi. Biroq bu din ma'lum darajada hamma yoqda tarqalgan. Bu dinning asoschisi shahzoda Gautama Sidxartadir. U farovonlik, zeb-ziynatda tug'ilib o'sgan. Kunlardan bir kun saroydan tashqarida yurganida uch erkakka ko'zi tushadi: biri juda xasta, boshqasi g'oyat qari va uchinchi o'lik edi. Inson chekayotgan iztiroblarni ko'rib dahshatga tushgan shahzoda odamzot haqiqatga hamda uzoq vaqt davom etadigan baxt-saodatga qanday qilib erishishi mumkinligi haqida bosh qotira boshlaydi.

U ro'za tutar va oddiy bo'lmagan ushbu savolga javob izlar ekan, qattiq xayolga tolardi. Bir kuni u anjir daraxti ostida (bu daraxt Bo daraxti yoki ma'rifat daraxti sifatida ham mashhur bo'lgan) o'tirar ekan, hamma narsadan mahrum, bechora odamlar o'z qobiliyatlari hamda o'z xohish istaklari orqali najot topishlari mumkinligini haqidagi fikr yo'satdan uning miyasiga kelib qoldi.